Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 28-oktabr, № 220 (8843) Dushanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEV SAYLOVDA OVOZ BERDI

27-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylovlar bo‘lib o‘tdi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oila a’zolari bilan birgalikda poytaxtimizning Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 59-saylov uchastkasiga tashrif buyurib ovoz berishda ishtirok etdi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 128-moddasida fuqarolar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga ega ekani belgilangan. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlangan.

Saylovda beshta – Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi, Ekologik partiya, Xalq demokratik partiyasi hamda “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi ishtirok etdi.

Bu muhim voqea “Mening tanlovim – obod Vatanim” shiori ostida, rivojlangan ijtimoiy-siyosiy muhitda o‘tdi.

O‘zbekiston tarixida ilk bor Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovlari aralash saylov tizimi, ya’ni majoritar-proporsional tizim asosida o‘tkazildi. Deputatlarning 75 nafari bevosita majoritar tizim asosida, ya’ni saylovchilar o‘zlariga maqbul nomzodlarga ovoz berishi yo‘li bilan, qolgan 75 nafari esa proporsional tizim bo‘yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida saylanadi.

Saylov qonunchiligi ilg‘or demokratik standartlarga mos ravishda tubdan takomillashtirildi. Jumladan, saylov organlarining Markaziy saylov komissiyasi boshchiligidagi yangi tizimi joriy etildi, jamiyat hayotida xotin-qizlarning rolini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko‘rsatishda ayollarning ulushi kamida 40 foiz bo‘lishi belgilandi.

Bu yilgi saylovlarning yana bir e’tiborli jihati – jarayon ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari to‘liq raqamlashtirilgan holda “E-saylov” axborot tizimi orqali amalga oshirilganida namoyon bo‘ldi. Mazkur tizim saylovlarning ochiqligini yuqori bosqichga olib chiqdi.

Barcha saylov uchastkalarida qonunchilikda belgilangan sharoitlar yaratildi. Joylarda 5 ming 770 ta okrug va 11 ming 28 ta, jumladan, 40 ta xorijiy mamlakatda 57 ta saylov uchastkasi tashkil etildi.

Uni kuzatishda MDH, SHHT, Turkiy davlatlar tashkiloti, shuningdek, YEXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosining to‘laqonli missiyasi tarkibida 850 nafardan ziyod xorijiy va xalqaro kuzatuvchilar ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari saylov uchastkasiga kelgan odamlar bilan suhbatlashdi. O‘z yurti va yashayotgan hududi taqdiriga daxldorligini his qilib, saylovlarda faol qatnashayotgan fuqarolarga minnatdorlik bildirdi.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

MSK

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASI

27-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatligiga saylovlar yangi tahrirdagi Konstitutsiya hamda milliy saylov qonunchiligiga binoan demokratik tamoyillarga to‘la mos holda qizg‘in va ko‘tarinki ruhda o‘tdi.

DEMOKRATIK TAMOYILLAR USTUVORLIGI KUZATILDI

Bu yil mamlakatimiz tarixida ilk bor parlament saylovi aralash saylov tizimi, ya’ni majoritar va proporsional tizim asosida tashkil qilindi. Shu o‘rinda alohida qayd etish joiz, joriy yil parlamentning quyi palatasiga saylanadigan 150 deputatning 75 nafari bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha, qolgan 75 nafari esa yagona saylov okrugi bo‘yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarga mutanosib ravishda siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlar ro‘yxati asosida saylanishi belgilangan.

Saylov kuni yurtimizning barcha hududida parlament va mahalliy Kengash deputatlari saylovlari uyushqoqlik bilan tashkil etildi. 11 ming 28 ta saylov uchastkasida fuqarolarimiz o‘z burchini amalga oshirgan bo‘lsa, 40 ta xorijiy davlatdagi mamlakatimizning diplomatik va konsullik muassasasi huzuridagi 57 ta saylov uchastkasida xorijdagi vatandoshlarimiz saylash huquqidan foydalandi.

“Mening tanlovim – obod Vatanim” shiori ostida o‘tgan saylovlarda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan beshta siyosiy partiya – Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi, O‘zbekiston Ekologik partiyasi, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi tomonidan birinchi marta barcha darajadagi deputatlik o‘rinlariga 100 foiz nomzodlar ko‘rsatildi. Jumladan, Qonunchilik palatasiga jami 875 nafar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga jami 3 ming 625 nafar, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga jami 24 ming 850 nafar nomzod ko‘rsatildi.

Yana bir ahamiyatli jihati, joriy yilgi saylovlarda Saylov jarayonini boshqarishning avtomatlashgan tizimidagi saylovchilarning elektron ro‘yxati shakllantirilgan bo‘lib, unga mamlakatimizdagi 19 million 944 ming 859 nafar saylovchi kiritilgan. Bundan tashqari, chet ellardagi saylovchilarimiz 165 ming 631 nafarni tashkil qildi.

“E-saylov” axborot tizimi ishga tushirilgani ham mazkur siyosiy jarayonda muhim ahamiyat kasb etdi. Yangi tizim saylovga doir axborotlarni olishda ko‘plab qulaylik va afzalliklarni yaratdi. Qolaversa, ilk marotaba Toshkent shahridagi bir nechta saylov uchastkalarida elektron ovoz berishni tashkil qilish va o‘tkazish tajriba-sinov tariqasida joriy etilgani muhim yangiliklardan biri bo‘ldi.

Ma’lumki, muddatidan oldin ovoz berish shu yil 16 – 23-oktabr kunlari o‘tkazilgan bo‘lib, unda mamlakatimiz hududida 1 million 15 ming 948 nafar, xorijda esa 132 ming 667 nafar saylovchi ovoz berdi.

Kecha bo‘lib o‘tgan saylovlarni 850 dan ortiq xorijiy va xalqaro kuzatuvchilar kuzatib bordi. Shuningdek, siyosiy partiyalardan 55 ming nafar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan 10 ming nafardan ziyod kuzatuvchilar jarayonni bevosita kuzatib bordi. Mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining akkreditatsiyadan o‘tkazilgan mingdan ortiq vakillari yurtimizdagi ushbu muhim voqeani faollik bilan keng yoritdi.

Markaziy saylov komissiyasining Matbuot markazida komissiya Raisi va o‘rinbosari hamda vazirlik va idoralar vakillari ishtirokida brifinglar tashkil qilinib, ommaviy axborot vositalari vakillari va xalqaro kuzatuvchilarga saylovlar jarayonining borishi to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etildi.

Markaziy saylov komissiyasi Raisi o‘rinbosari Bahrom Qo‘chqorov ishtirokida bo‘lib o‘tgan brifingda soat 17:00 holatiga respublikamizdagi jami saylovchilarning 14 million 264 ming 994 nafari yoki 71,52 foizi ovoz berishda qatnashgani qayd etildi.

Saylovlarning yakuniy natijalari 2024-yil 28-oktabr kuni e’lon qilinadi.

“Xalq so‘zi”.

Saylov — 2024

XALQARO STANDARTLAR DARAJASIDA O‘TKAZILDI

Kecha mamlakatimiz hayotida muhim bo‘lgan siyosiy tadbir − O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatligiga saylovlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz asosida xalqaro andoza va standartlar darajasida o‘tkazildi. Buni yurtimizda bo‘lib turgan xalqaro kuzatuvchilar ham e’tirof etmoqda.

Muxbirlarimiz joylarga chiqib,mamlakatimiz buguni va kelajagiga daxldor ushbu muhim siyosiy jarayonlarning qanday tashkil etilganini, yurtdoshlarimiz va xalqaro kuzatuvchilarning fikr-mulohazalarini yozib oldi.

Xorijiy kuzatuvchi shart-sharoit va jarayonlardan qoniqish hosil qildi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi. Orolbo‘yida 654 ta saylov uchastkasi tashkil etilgan. Ertalab soat 8:00 dan barcha saylov uchastkasida ovoz berish boshlandi.

– Saylovga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida mamlakatimiz milliy saylov mezonida ilk bor joriy etilgan “Ye-saylov” tizimi o‘zining qulayligini to‘la ko‘rsatdi, – deydi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi raisi Ziyuatdin Kamalov. – “E-Saylov” interfaol portalida ushbu muhim siyosiy jarayonning ochiqligini ta’minlash va aholining zarur ma’lumotlarga ega bo‘lishida keng imkoniyatlar yaratildi.

Qoraqalpog‘istonga bir necha uzoq muddatli xalqaro kuzatuvchilar kelib hududlarda saylovlarga tayyorgarlik holatini ko‘zdan kechirgan bo‘lsa, saylov kuni qisqa muddatli xalqaro kuzatuvchilar ovoz berish jarayonlarini kuzatib bordi.

Shu bilan birga, xalqaro kuzatuvchilar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasida bo‘lib, bu yerdagi shart-sharoit va jarayonlar bilan tanishdi. Slavyan-Yevroosiyo tadqiqotlari markazi professori, Yaponiya Markaziy Osiyo tadqiqotlari jamiyati prezidenti Uyama Tomoxiko shulardan biridir. U shart-sharoit va jarayonlardan qoniqish hosil qildi.

2

QONUNCHILIKDAGI IJOBIY O‘ZGARISHLAR YUQORI BAHOLANDI

Markaziy saylov komissiyasida O‘zbekistonda o‘tkazilgan muhim tadbir − Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatligiga saylovlar munosabati bilan yurtimizda bo‘lib turgan qator xalqaro kuzatuvchilar missiyalari ishtirokida uchrashuvlar tashkil etildi.

Xususan, joriy yil 26-oktabrda Markaziy saylov komissiyasi Raisi Z. Nizomxo‘jayev Shanxay hamkorlik tashkiloti bosh kotibi o‘rinbosari N. Yermekbayev va Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi o‘rinbosari Merey Mukajan bilan uchrashdi.

Unda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlariga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq jarayonlar, aralash saylov tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot berib o‘tildi.

O‘z o‘rnida xalqaro kuzatuvchilar bu muhim siyosiy tadbirga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish borasidagi barcha ishlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylov qonunchiligi asosida tizimli holda muvofiqlashtirilib borilayotgani, xalqaro normalar va standartlarga to‘la mos kelishini e’tirof etishdi.

* * *

Markaziy saylov komissiyasida Pokiston Senatidagi “Pokiston –O‘zbekiston” do‘stlik guruhi a’zosi Irfan Ulhak Siiddiqiy boshchiligidagi senatorlar guruhi, Ozarbayjon Markaziy saylov komissiyasi Raisi Mazaxir Panaxov, Xitoy Xalq Respublikasi elchisi Sun Lisze boshchiligidagi Xitoy Xalq Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi kuzatuvchilar guruhi, Tojikiston Markaziy saylov komissiyasi Raisi Baxtiyor Xudoyorzoda, Turkmaniston Markaziy saylov komissiyasi Raisi Gulmurat Muradov hamda Pokiston Markaziy saylov komissiyasi Raisi Sulton Muhammad boshchiligidagi delegatsiya vakillari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Muloqot davomida saylovlarga tayyorgarlik hamda ushbu muhim siyosiy tadbirning qizg‘in jarayonlari, bosqichlari, saylov qonunchiligidagi o‘zgarishlar va yangiliklar xususida so‘z yuritildi.

Shuningdek, respublikamiz vaqti bilan soat 8:00 da O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatligiga saylovlar boshlangani, butun mamlakatimiz bo‘ylab hududiy saylov komissiyalari tomonidan tuzilgan 11 ming 28 ta saylov uchastkasi o‘z ishini boshlagani qayd etildi.

3

«BARCHASI QONUNIY TALABLARGA JAVOB BERADI»

Kecha mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatligiga saylovlar qizg‘in hamda ko‘tarinki ruhda o‘tdi. Mazkur siyosiy jarayonni 850 dan ortiq xorijiy va xalqaro kuzatuvchilar bevosita kuzatib bordi. Muxbirlarimiz ularning taassurotlari,fikr-mulohazalari bilan qiziqdi.

Dunyo nigohi

Renato SPANYOLO,
Italiyaning “Cotonella S.p.A.” kompaniyasi bosh direktori:

– Saylov jarayonlarini ko‘plab xorijiy kuzatuvchilar qatorida yaqindan kuzatib bordik. Qashqadaryo viloyati hududiy saylov komissiyasida bo‘lib, bu yerda saylovchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdik. Barchasi qonuniy talablarga javob beradi. Yosh bolali onalar, ayniqsa, nogironligi bo‘lgan insonlarning ovoz berishi uchun qulay imkoniyatlar, afzalliklar muhayyo etilgan.

Saylov kuni ertalabdan bir nechta saylov uchastkalariga borib ovoz berish jarayonlarini kuzatdim. Saylovchilar oila a’zolari bilan yuqori kayfiyatda kelib ovoz berishganini ko‘rib, bu ahillik, faollik natijasi ekaniga yana bir karra amin bo‘ldim.

Kiriya BANCHOKPAKDI
(Laos):

– O‘zbekistonda bu galgi deputatlar saylovi aralash saylov tizimi (majoritar va proporsional) asosda o‘tkazildi. Muhimi, odamlarning hamjihatlikda ovoz berganiga guvoh bo‘ldik.

Saylov kuni biz borgan saylov uchastkalarida jarayon demokratiya tamoyillari asosida, shaffof muhitda, qonunchilikka mos o‘tayotganining guvohi bo‘ldik. Quvonarlisi, saylov uchastkalaridagi jarayonlarni onlayn kuzatish imkoniyati yaratilgani bo‘ldi. Yana bir jihat, O‘zbekiston yoshlari saylovlarda juda faollik ko‘rsatishdi. Ayni shu jihat mamlakat yoshlari yurt taqdiriga befarq emasligini namoyon etadi.

Qisqacha aytganda, jarayon mamlakatdagi yaxshi o‘zgarishlarga hamohang kayfiyatda o‘tganini his qilib turibmiz.

Adam MARSHALEK,
Polshadagi “Marshlek-xolding” nashriyoti prezidenti:

– O‘tgan kuni Toshkent shahrida bo‘lib saylovga tayyorgarlikni kuzatgan bo‘lsam, kecha Samarqandda bu jarayonga bevosita guvoh bo‘ldim. Odamlar saylovlarga befarq emas, qayerga borishni, kimga ovoz berishni biladi. Ayrim davlatlarda aholi avval o‘z yumushlarini bajarib, keyin saylovga boradi. O‘zbekistonda saylovchilar ertalabdan uchastkalarga borib, ovoz berdi. Bu yurtingizda saylovni o‘tkazish bo‘yicha katta tajriba to‘planganidan dalolat. O‘zbekiston bugun jadal rivojlanmoqda, dunyo nigohida. Shuning uchun saylovni kuzatishga ham ko‘p davlatlar, xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilar kelgan. Men ham ilgari xalqaro tashkilotlar guruhi tarkibida saylov jarayonlarini kuzatganman. Bu gal mustaqil kuzatuvchi sifatida qatnashyapman. Tashkilotchilar qaysi hududga bormoqchisiz, deb so‘raganida hech ikkilanmay Samarqandni tanladim. Chunki har gal bu qadimiy va go‘zal shaharda bo‘lganimda yangi taassurotlarga ega bo‘laman.

3

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 28-oktabr

XALQARO STANDARTLAR DARAJASIDA O‘TKAZILDI

1

IMKONIYATI CHEKLANGANLAR UCHUN QULAYLIK

Andijon viloyati. Hududdagi 7 ta saylov okrugi hamda 938 ta saylov uchastkasida saylovchilarga yaratilgan qulayliklarni ko‘rgan kishining tashkilotchilarga minnatdorlik bildirishi tabiiy. Xususan, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun hamma narsa muhayyo qilingan.

– Tumanimizdagi 61 ta saylov uchastkasining barchasida nogironlar aravachasiga moslashtirilgan nishab yo‘lak (pandus) barpo etilgan bo‘lib, “yordamga chaqirish” tugmasi ham o‘rnatilgan. Bu men kabi imkoniyati cheklanganlar uchun ayni muddao bo‘ldi, – deydi Baliqchi tumanilik saylovchi Nuriddin Almatov.

– Hududimizda 2570 nafar saylovchi bo‘lib, shundan 27 nafari fuqarolik huquqidan ilk bor foydalangan holda birinchi marta saylovlarda qatnashdi, – deydi Andijon shahridagi 127-saylov uchastkasi mas’ul kotibi Lolaxon Muxtorova. – Turli sabab bilan saylov uchastkasiga kela olmagan 131 nafar saylovchi esa muddatidan avval ovoz berish imkoniyatidan foydalandi. Hayotimizdagi bu muhim siyosiy jarayonda mahalladoshlarimiz faol qatnashdi. Buni saylovchilarning 30 foizi birinchi soatdayoq o‘zlari munosib deb bilan nomzodlarga ovoz bergani misolida ham ko‘rish mumkin edi.

“FUQAROLIK BURCHIMNI BAJARDIM”

Jizzax viloyati. Hududda 553 ta saylov uchastkasi tashkil etilgan bo‘lib, erta tongdan ularning barchasida saylovchilarning faolligi yaqqol sezilib turdi.

Xususan, Forish tumani, Uxum qishlog‘i, Mushkibiryon mahallasida yashovchi O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi Esonbek Polvonov saylovda birinchilardan bo‘lib ovoz berdi.

– Saylovdan oldin, siyosiy partiyalar, deputatlikka nomzodlarning saylovoldi dasturi bilan tanishib chiqdim, – deydi u. – Qariyb barcha hududimizdan saylanayotgan deputatlikka nomzodlar qishlog‘imizga kelib aholi bilan uchrashuvlar o‘tkazdi. Ular bilan savol-javoblar qildik. OAVda ham siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqotini doimiy kuzatib bordim. Hozir esa Vatan oldidagi fuqarolik burchimni bajarib, o‘zim lozim topgan munosib nomzodlarga birinchilardan bo‘lib ovoz berdim.

YANGILANISHLARNING AMALDAGI IFODASI

Navoiy viloyati. Navqiron kentlardan tortib, Qizilqumdagi olis ovullargacha har bir saylov uchastkasida yurtdoshlarimiz faolligini kuzatish mumkin edi.

Hududiy saylov komissiyasining ma’lumotlariga ko‘ra joriy saylovda viloyat bo‘yicha 640 ming nafardan ziyod saylovchilar ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning 203 ming 102 nafari yoshlar, 11 ming nafardan ortig‘i ushbu muhim siyosiy jarayonda ilk bor qatnashayotgan yigit-qizlardir. Karmana tumanidagi Do‘rman mahallasidan urush va mehnat faxriysi, 104 yoshli Pirnazar bobo Turdiyev hudud saylovchilarining eng keksa vakillaridan biri.

– Saylovga evaram bilan keldim, uyam ovoz berdi. – deydi Pirnazar bobo. – Shularning kelajagi, O‘zbekistonimizning dunyoda obro‘si yanada baland bo‘lishi uchun ovoz berdim.

Barcha saylov uchastkalarida zarur sharoitlar yaratilgan bo‘lib, bu xalqaro kuzatuvchilar tomonidan ham e’tirof qilindi.

– O‘zbekiston jadal rivojlanayotgani barchaga ayon, uning demokratik huquq va normalarda erishgan yutuqlariga mana shu saylovlarda yana bir bor amin bo‘ldim, – deydi Buyuk britaniyalik kuzatuvchi Naomi Skott Dunne. – Bu, albatta, bir kun yoki bir yilda bo‘ladigan ish emas, u kechadan bugunga o‘tib, ertaga ham o‘z samarasini beradigan yangilanishlarning amaldagi ifodasidir.

SURDO-TARJIMADAN FOYDALANILDI

Samarqand viloyati. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatligiga saylovlarda aholining barcha qatlamini qamrab olishga alohida e’tibor qaratildi.

Saylovga tayyorgarlik jarayonida nogironligi bo‘lgan fuqarolarga qulaylik yaratildi. Saylov uchastkalariga Brayl alifbosida tayyorlangan trafaretlar, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi saylovchilar uchun optik lupalar yetkazildi. Uchastka binolari nogironlar aravachasiga moslashtirilgan nishab yo‘laklari (panduslar), “yordamga chaqirish” tugmasi bilan jihozlandi.

Samarqand shahar 61-sonli eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maxsus maktab-internatida joylashgan 107-saylov uchastkasida ham saylov yuqori saviyada o‘tkazildi va ovoz berishda surdo-tarjimadan foydalanildi.

– Saylov uchastkasida bizga kerakli sharoit yaratilganidan mamnun bo‘ldik, – deydi 25 yoshli saylovchi Farruxjon Ummatqulov. – Biz ovoz bergan nomzodlar kelgusida yurtimiz rivojiga hissa qo‘shishiga ishonaman.



FAROVONLIGIMIZ YO‘LIDA

Buxoro viloyati. Buxoro shahridagi Mahmud Torobiy nomidagi mahallada istiqomat qiluvchi 73 yoshli Negmat Mo‘minovni 26-saylov uchastkasida xushkayfiyatda uchratdik.

– Mahallamizdagi o‘zgarishlardan juda xursandmiz, – deydi otaxon. – Yo‘llar asfaltlandi. Kanalizatsiya masalasi hal bo‘ldi. Yo‘l yoqasidagi elektr ustunlari yangilandi. Bu kabi o‘zgarishlarda mahallamiz, shahrimiz mas’ullari bilan bir qatorda deputatlarning ham hissasi bor. Ularga qilgan murojaatlarimiz hech qachon yerda qolgan emas. Shu boisdan ham bugungi saylovga bajonidil kelib, el-yurt farovonligi yo‘lida o‘zimga ma’qul nomzodlar va partiya uchun ovoz berdim.

Saylov uchastkasini bir qur ko‘zdan kechirdik. Deputatlikka nomzodlar ro‘yxati barcha uchun ko‘rinarli va qulay joyda turibdi. Saylovchilarning ular haqida ma’lum bir tushunchaga ega bo‘lishi uchun shart-sharoit yaratilgan. Partiyalarning ishonchli vakillariga ham saylov jarayoni qanday o‘tayotganini kuzatish uchun qulayliklar mavjud.

Uchastka saylov komissiyasidan bildirishlaricha, hudud bo‘yicha jami 2219 nafar saylovchi bo‘lib, shundan 18 nafar yigit-qiz ilk bor ovoz berdi. Sevara Qobilova ana shularning biri.


– Buxoro tibbiyot texnikumida tahsil olyapman, – deydi u. – 27-oktabr bir umr yodimda qoladi. Chunki ilk bor saylovda ovoz berdim. Bo‘lg‘usi deputatlarimiz biz, yoshlarning o‘qishimiz, hayotda o‘z o‘rnimizni topib ketishimizda asqatadigan tashabbuslar bilan maydonga chiqishadi, degan umiddaman.

IKKI QUVONCHLI VOQEA

Sirdaryo viloyati. Shahar va tumanlar hududida joylashgan 322 ta saylov uchastkasida ovoz berish jarayonlari Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanganidek soat sakkizda boshlandi.

Shirin shahrining Nurobod mahallasida yashovchi Zamira Tojiqulova uchun deputatlik saylovi sanasi qo‘shaloq tantana kuniga aylandi. U ayni 27-oktabrda 18 yoshga to‘ldi va shu kuni ovoz berish huquqiga ega bo‘ldi. Shirin shahridagi 32-saylov uchastkasida saylov komissiyasi a’zolari ham Zamirani bu unutilmas ikki quvonchli voqea bilan samimiy tabrikladi.

– Mana shu mahallada voyaga yetdim, o‘zim ovoz bergan mazkur saylov uchastkasi joylashgan maktabda bilim oldim, – deydi Zamira Tojiqulova. – Poytaxtda, oliy o‘quv yurtida ta’lim olyapman. Demoqchimanki, yurtimizda biz, yoshlarning yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishimiz, orzularimizni amalga oshirishimiz uchun barcha sharoit va imkoniyat yaratilgan. Bugungi saylovdagi ilk ishtirokimda ana shu e’tiborga yarasha kelgusida xalqimizga va yurtimizga naf keltiradigan inson bo‘lishni niyat qilib, Vatanimizning yanada gullab-yashnashi uchun ovoz berdim.



Сирожиддин ВОҲИДОВ олган сурат.

105 YOSHLI ONAXON DUOGA QO‘L OCHDI

Surxondaryo viloyati. Vohada tashkil etilgan 865 ta saylov uchastkasida keksa, kelish imkoniyati bo‘lmagan, uyda yotib qolgan fuqarolarning ham ovoz berishi uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Denov tumanidagi Bog‘i Eram mahallasida yashovchi 105 yoshli onaxon Bibirajab Murodovaning xonadoniga kelgan mas’ullar uning konstitutsiyaviy huquqidan foydalanishiga sharoit yaratib berishdi. Onaxon o‘zi munosib deb bilgan nomzodlarga ovoz berdi.

Piru badavlat onaxon yurtimiz tinchligini tilab duoga qo‘l ochdi.

HARBIY XIZMATCHILAR FAOLLIK KO‘RSATDI

Janubi-G‘arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Termiz, Kakaydi hamda Xayrobod garnizonlarida joylashgan saylov uchastkalarida ham Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatligiga saylovlar uyushqoqlik bilan o‘tkazildi.

Muhim siyosiy jarayonda harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari hamda muddatli harbiy xizmatchilar faollik ko‘rsatishib, o‘zlari tanlagan munosib nomzodlarga ovoz berishdi.

YOSH KELIN-KUYOVGA KITOBLAR JAMLAMASI SOVG‘A QILINDI

Boysunlik yosh kelin-kuyov O‘rol Norqulov va Sarvinoz Halilova tumandagi 11-saylov uchastkasiga kelib, konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalandi hamda o‘zlari munosib deb tanlagan nomzodlarga ovoz berdi.

– Bugungi kun har birimiz uchun eng muhim palla hisoblanadi, – deydi O‘. Norqulov. – Aslida mana shu tanlovimiz orqali o‘z kelajagimizni belgilayapmiz. Tanlagan siyosiy partiyam – nomzodlarim g‘alaba qozonishini istayman. Chunki ularning dasturi istaklarimga mos. Hammasi shaffof, qonun doirasida o‘tdi. Hatto rafiqam ham kimga ovoz berishini oldindan menga bildirmadi.

Saylov uchastkasi mas’ullari yosh kelin-kuyovga kitoblar jamlamasini sovg‘a qilishdi.

“BU SANANI INTIQLIK BILAN KUTDIM”

Namangan viloyati. Ushbu hudud ahli ham Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlarida faollik bilan qatnashdi. Joylarda ushbu muhim siyosiy kampaniyaga puxta hozirlik ko‘rilib, 837 ta saylov uchastkasida namunali ish olib borildi.

Muhim siyosiy tadbirda ishtirok etgan namanganliklar orasida ilk marotaba ovoz bergan yoshlar vakillari 33,8 ming nafardan ortiq ekani ham e’tiborga molik.

– Bu sanani intiqlik bilan kutdik, negaki, hayotimda ilk marta saylovda ishtirok etdim, – deydi To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Shovon mahallasida istiqomat qiluvchi Muslima Jahongirova. – Ertalabdan hayajon bilan hududimizdagi 496-saylov uchastkasiga oshiqdim. Aniq qarorga kelish uchun oldinroq saylov qonunchiligi haqidagi bilimimni oshirishga harakat qilgan edim, siyosiy partiyalarning deputatlikka nomzodlari haqida bilib olib, uchrashuvlarda qatnashdim. O‘zim yashayotgan mahalla ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatidan kelib chiqib ularning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarini taqqosladim. Chunki men qo‘llab-quvvatlagan nomzodlar ertaga vakillik hokimiyatida deputat sifatida yaqinlarim va qo‘ni-qo‘shnilarim manfaatini himoya qilishi, biz yashayotgan hudud taraqqiyotiga hissa qo‘shishi kerak.

UYIDA TURIB OVOZ BERDI

Qashqadaryo viloyati. Yurtimizning boshqa hududlarida bo‘lganidek Qashqadaryoda ham saylov kuni belgilangan joyga kelolmaydigan fuqarolar alohida e’tiborga olindi. Saylov uchastkasi a’zolari ularning uyiga borib, tegishli tartibda ovoz berishini tashkil etishdi.

Kasbi tumanidagi Do‘stlik mahallasida yashovchi 105 yoshli Nazira aya Rajabova ana shu imkoniyatdan foydalangan holda o‘z uyida turib ovoz berdi.

– Biz yoshlikda ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechirganmiz, – deydi onaxon. – Bugun yurtimizdagi osudalik, xotirjamlik, farovonlikni ko‘rib farzandlarim, nevara-chevaralarim shunday osoyishta kunlarda yashayotganidan quvonaman. Dilimda ham, tilimda ham bu kunlarning abadiy bo‘lishini tilab duo qilib o‘tiraman. Bugun yurtimizning rivoji, farovonligi yo‘lida xizmat qilishiga ishongan nomzodlarga ovoz berdim.

KELAJAGIMIZ O‘Z QO‘LIMIZDA

Farg‘ona viloyati. Hududiy saylov komissiyasi raisi Erkinjon Nuraliyevning ma’lum qilishicha, viloyatda 1210 ta saylov uchastkasi tashkil etilgan.

Umumiy saylovchilar soni 2 million 229 ming 469 nafar, muddatidan oldin ovoz berganlar 219 ming 455 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu jarayonda 41 ming 460 nafar yosh ilk bor ovoz berdi.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Qo‘qon filialida joylashgan 165-saylov uchastkasidagi jarayonlar ham saylovchilar faolligi ostida kechdi.

Saylov uchastkasida 2021 nafar saylovchi ro‘yxatga olingan bo‘lib, ilk bor ovoz berayotgan yosh avlod vakillari 45 nafarni tashkil qildi. Ularga guldastalar taqdim etilib a’lo kayfiyatda kutib olindi.

– Biz o‘z kelajagimiz va taqdirimizga befarq emasmiz, – deydi o‘z saylov huquqidan foydalangan Mavludaxon Ermatova. – Bugun mamlakatdagi bu siyosiy jarayonda qatnashish qanchalik muhim ekanini his etdik va o‘zimiz munosib deb bilgan nomzodlarga ovoz berdik.



Акмал МУҲАММАДОВ олган сурат.

“MENING TANLOVIM – OBOD VATANIM”

Toshkent viloyati. Hududdagi 1 ming 6 ta saylov uchastkasini bayramona fayz chulg‘ab oldi. Zero, fuqarolar “Mening tanlovim – obod Vatanim” shiori ostida ovoz berish jarayonida faol ishtirok etdi.

– Saylovda hududlarda bir oila farzandlaridek istiqomat qiluvchi turli millatga mansub fuqarolar uyushqoqlik bilan qatnashdi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar saylovda emin-erkin qatnashishini ta’minlash uchun zarur infratuzilmaviy sharoitlar yaratildi, – deydi viloyat saylov komissiyasi a’zosi Nigora O‘rolova. – Shuningdek, ko‘zi ojiz fuqarolarning ovoz berishi uchun barcha saylov uchastkalari Brayl alifbosi asosida tayyorlangan trafaretlar va optik lupalar bilan ta’minlandi. Imkoniyati cheklangan saylovchilar uchun barcha binoga kirish joylari nogironlar aravachasiga moslashtirilgan yo‘laklar (panduslar) yoki “yordamga chaqirish” tugmasi bilan jihozlandi.

Oqqo‘rg‘on tumanidagi 288-saylov uchastkasi hududida istiqomat qiluvchi Ikkinchi jahon urushi faxriysi, 104 yoshli Fayzulla ota Nurmatov ham siyosiy jarayonda faollik ko‘rsatdi.

– Belgilangan joyga borolmaganimiz tufayli saylov uchastkasi xodimlari ko‘chma quti bilan huzurimga keldi – deydi otaxon. – O‘zim loyiq deb bilgan nomzodlarga ovoz berganimdan mamnunman.

“ISHTIROKIM – YURTIMIZ RAVNAQIGA QO‘SHGAN KICHIK HISSAM”

Xorazm viloyati. Ko‘hna vohada bo‘lgan saylov jarayonlarida ham milliy qonunchilik va umume’tirof etilgan demokratik tamoyillar ustuvorligi yaqqol sezilib turdi.

Urganch shahridagi 28-saylov uchastkasi erta tongdan saylovchilar bilan gavjum bo‘ldi. Davlat madhiyasi yangrab, shundan so‘ng ovoz berish jarayonlari boshlandi.

– Saylovlarda ko‘p marta qatnashganman, – deydi “Nuroniy” jamg‘armasi Xorazm viloyati bo‘limi raisi Rustam Sultonov. – Saylovda ishtirok etish har bir fuqaroning burchi. Bu gal ham farzandlarim, nevara-chevaralarim bilan bordik. Yaratganga shukr, yurtimiz tinch. Qarang, shaharu qishloqlarimiz obod bo‘lib, turmushimiz farovonlashib bormoqda. Bugun el-yurt tinchligini, nevara-chevaralarim kelajagini o‘ylab o‘zim ma’qul topgan nomzodlarga ovoz berdim. Ishtirokim yurtimiz taraqqiyotiga qo‘shgan kichik hissam bo‘ladi.

ELEKTRON USUL SINOVDAN O‘TKAZILDI

Toshkent shahri. Mamlakatimiz poytaxtida saylovlarga nihoyatda puxta hozirlik ko‘rildi. Bu bejiz emas. Zero, katta shaharning tayyorgarligi ham shunga yarasha bo‘lishi kerak. Buni ilk marotaba 10 ta saylov uchastkasida elektron ovoz berish usuli sinovdan o‘tkazilgani misolida ham kuzatish mumkin bo‘ldi.

Yakkasaroy tumanidagi “Damariq” mahalla fuqarolar yig‘inidagi 547-saylov uchastkasida el-yurt e’tiboridagi ko‘plab insonlar ovoz berdi. Dzyudo bo‘yicha Olimpiya o‘yinlari g‘olibi Diyora Keldiyorovani ham ushbu manzilda uchratdik. U saylov bilan bog‘liq fikrlarini shunday ifodaladi:

– Yangi O‘zbekiston kelajagini bunyod etish, uning taraqqiyotini ta’minlashda saylanajak deputatlarning o‘rni katta. Men tanlagan nomzodlar ana shu ezgu ishga bor bilim va salohiyatini safarbar etishiga ishonaman.

“Xalq so‘zi”.

QONUNCHILIKDAGI IJOBIY O‘ZGARISHLAR YUQORI BAHOLANDI

Mehmonlar mamlakatimiz saylov qonunchiligidagi yangiliklar bilan tanisharkan, ayni yo‘nalishdagi ijobiy o‘zgarishlarni yuqori baholashdi. O‘tayotgan mazkur saylovlar ham xalqaro demokratik tamoyillarga to‘laqonli javob berishiga ishonch bildirishdi.

Pokiston Senatidagi “Pokiston – O‘zbekiston” do‘stlik guruhi a’zosi Irfan Ulhak Siiddiqiy: “Aytishim kerakki, ushbu jarayon nafaqat menga, balki hamkasblarim uchun ham juda muhim hisoblanadi. Barchaning faolligi jarayonning yaxshi tashkillashtirilganini ko‘rsatadi. Ishonchim komilki, yangi o‘zgartirishlar bilan o‘tkazilgan saylovlarda xalq faol qatnashib, o‘zlari munosib ko‘rgan vakillarga ovoz berishdi. Yangi saylov tizimidagi gender tengligi, aniq aytganda, deputatlikka nomzodlar orasida ayollar ulushi 30 foizdan 40 foizga oshirilgani juda ahamiyatli. Chunki dunyodagi rivojlangan davlatlarda ham bunday ko‘rsatkich yo‘q”, deya ta’kidladi.

Ozarbayjon Markaziy saylov komissiyasi Raisi Mazaxir Panaxov quyidagilarni qayd etdi:

– Ertalabdan ko‘pgina saylov uchastkalarini kuzatishga muvaffaq bo‘ldik. Jarayonlar yaxshi tashkillashtirilgan. Barcha ishlar Saylov kodeksiga mos ravishda amalga oshirilgan. Aytish joiz, xalqaro standartlarga mos ravishda o‘tgan saylovlar uning shaffofligi va oshkoraligini ta’minlashga xizmat qildi.

“Biz bir fikrni ta’kidlab o‘tmoqchimiz: saylovlar yuqori saviyada tashkil etildi. Biz nafaqat saylovlarni kuzatish, balki saylovning ilg‘or jihatlarini o‘rganish uchun ham tashrif buyurganmiz”, – *dedi Tojikiston Markaziy saylov komissiyasi Raisi Baxtiyor Xudoyorzoda.* Ayni chog‘da u saylov uchastkalarini saylov texnikasi bilan ta’minlash, uchastka komissiyalari a’zolarining malakasini oshirish ishlarini ijobiy baholab, deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalarning saylovoldi dasturlari hamda deputatlikka nomzodlar to‘g‘risida keng ma’lumotlar mavjudligini alohida qayd etdi.

“Xalq so‘zi”.

«BARCHASI QONUNIY TALABLARGA JAVOB BERADI»

Tatyana XEKKER, “Berliner Telegraph” gazetasi muxbiri (Germaniya):

– Saylovlarga tayyorgarlik jarayoni bilan tanishish maqsadida dastlab Buxoro shahridagi ikkita saylov uchastkasida bo‘ldik. Bu joylarda qonunchilik doirasida tayyorgarlik ishlari yo‘lga qo‘yilgan, saylov kabinalari, saylov qutilari joylashtirilgan.

Jarayon arafasida Buxoro ko‘chalarida, bozorlarida bo‘lib, odamlar bilan muloqot qildik. Ular bilan suhbatlashganimizda fuqarolar saylovga tayyor ekanliklarini, ularning ovozi ertangi taraqqiyot, bolalarining kelajagi hamda musaffo ekologiya uchun muhim ekanini alohida ta’kidlashdi. Bu juda ham quvonarli.

Saylov kuni Markaziy saylov komissiyasining Matbuot markazida bo‘ldik. Bu yerda OAV vakillari uchun barcha sharoit yaratilgan. Albatta, bundan minnatdormiz. Chunki mavjud imkoniyatlar xolis, haqqoniy, tezkor axborotni yetkazishda muhim o‘rin tutadi.



Andrey OFITSEROV, xalqaro kuzatuvchi:

– O‘zbekistondagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlarini kuzatish maqsadida yurtingizga kelib, Samarqanddagi saylov jarayonlari bilan tanishdik. Bir nechta saylov uchastkasida ovoz berish jarayonlarini kuzatdim. Parlament saylovlariga tayyorgarlik yaxshi tashkil etilgan. Saylovchilarning faolligini alohida ta’kidlash kerak. Yoshlar ham, keksalar ham uchastkaga kelib, o‘z huquqidan foydalanishgani e’tiborga molik.

Archana UPADHYAY (Hindiston):

– Mamlakatingizda o‘tkazilgan parlament saylovida xalqaro kuzatuvchi sifatida ishtirok etdim. Ta’kidlash kerak bo‘lgan alohida jihat – bu yurtingizda ayollar va erkaklarning teng huquqliligi. Buni faqat saylovda emas, barcha sohada ham yaqqol ko‘rish mumkin. Hindiston demokratik saylov tizimiga ega va bunga 75 yil davomida erishgan. O‘zbekistonda so‘nggi 10 yilda o‘tkazilayotgan saylovlar ko‘rsatkichlaridan ko‘rish mumkinki, bu juda katta natija.

Samarqandga birinchi bor kelishim, eshitganlarimdan ham ko‘proq va yaxshiroq taassurotlarga ega bo‘ldim. Go‘zal tarixiy shahar, odamlarning mehmondo‘stligi menga juda yoqdi.

Maksim KRAMARENKO (Qozog‘iston):

– MDH Parlamentlararo Assambleyasi vakili sifatida saylov uchastkalaridagi tashkiliy ishlar, ovoz berish jarayonlarini kuzatib bordik. Saylovda fuqarolarning umumiy, teng va yashirin tarzda ovoz berish huquqlarini amalga oshirishlariga barcha sharoit yaratilgan. Mamlakatingiz saylov qonunchiligi menga yaqindan tanish. Kuzatuvlarimdan kelib chiqib aytishim mumkinki, uchastka saylov komissiyalari o‘z vazifalarini belgilangan tartibda olib borishdi. Kuzatuvlarimiz natijalarini har ikki soatda onlayn rejimda hisobot tarzida topshirib bordik. Monitoring davomida olingan ma’lumotlar O‘zbekiston parlamenti saylovi yakunlari bo‘yicha xulosa tayyorlashda inobatga olinadi.

“Xalq so‘zi”.

Munosabat

“Yurt taqdiriga befarq emasman”

Saylovlar “Mening tanlovim – obod Vatanim” shiori ostida o‘tkazilayotganida chuqur ma’no bor.
Bu mamlakatimizda katta o‘zgarishlar bo‘layotganidan darak beradi.

Angor tumani madaniyat uyida joylashgan 137-saylov uchastkasida ham siyosiy partiyalardan qo‘yilgan nomzodlarga ovoz berish jarayoni qizg‘in tashkil etildi. Barchasi shaffof va adolatli, yangicha tizimda o‘tkazildi. Quvonarlisi, yurtdoshlarimiz saylovlarga ishtiyoq va katta umidlar bilan qatnashib, o‘z ovozlarini berishdi.

Men ham yangi O‘zbekiston taraqqiyoti, dasturxonimiz to‘kinligi, fermerlik harakatining yanada rivojlanishi uchun o‘zim munosib deb bilgan nomzodlarga ovoz berdim. Ularning saylovoldi dasturlarida keltirilgan takliflar mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi uchun xizmat qilishiga ishonaman.

Isoxon BAHROMOV, Angor tumanidagi “Saidnosirxon” fermer xo‘jaligi rahbari, O‘zbekiston Qahramoni.

Burch va mas’uliyat hissi

Ilk bor saylovda ovoz berdim. Mazkur jarayon men uchun nihoyatda mas’uliyatli va hayajonli bo‘ldi. Alohida qayd etishim joizki, ushbu muhim siyosiy tadbirga jiddiy yondashdim.

Dastlab nomzodlar haqidagi ma’lumotlar va ularning dasturi bilan tanishdim. Saylov uchastkasidagi saylovga oid ma’lumotlardan deputatlarning jamiyatimizdagi o‘rni va ahamiyati haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘ldim. Men tanlagan nomzodlar mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda Andijon shahridagi 28-saylov uchastkasida o‘zim munosib, deb bilgan nomzodlarga ovoz berdim.

Gulhayo SOBIROVA.
Andijon shahri



Mamlakat istiqboli hamma uchun muhim

O‘zbekiston yoshlari bugun har sohada faol. Birgina joriy yilning o‘zida Parijda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida yurtimiz sportchilari butun dunyoga o‘z kuch va salohiyatini ko‘rsatdi.

Saylovlar jarayonlari ham O‘zbekistonning bugungi taqdiri va kelajagini belgilovchi muhim tadbirdir. Ta’bir joiz bo‘lsa, kelajagimiz uchun tanlov. Shu bois Farg‘ona davlat universitetida tashkil etilgan 71-saylov uchastkasida erta tongda ovoz berdim. Saylovda yoshlarning juda faol qatnashayotgani meni behad mamnun qildi.

Saylov uchastkasi raisi Muhammadjon Mamajonovning bildirishicha, ovoz berish boshlangan dastlabki soatlarda ro‘yxatdan o‘tgan ikki mingdan ziyod saylovchilarning o‘ttiz foizdan ko‘prog‘i o‘z tanlovini amalga oshirib bo‘lgan. Bu, albatta, quvonarli holatdir.

Ushbu muhim siyosiy jarayonda farg‘onalik yoshlar faollik ko‘rsatib, kelajagi uchun befarq emasligini namoyon etgani, shubhasiz, diqqatga sazovor.

Asadxo‘ja MO‘YDINXO‘JAYEV, yozgi Olimpiya o‘yinlari chempioni.



Nuroniylar ham faol

Mamlakatimiz hayotidagi muhim siyosiy jarayon – saylovda har bir insonning ishtiroki va ovozi alohida ahamiyatga ega.

Men tumanimizdagi Do‘stlik mahallasida joylashgan 502-saylov uchastkasida oila a’zolarim bilan qatnashib, munosib nomzodlarga ovoz berdim. Zero, yurt tinchligi, xalq farovonligi, keksalar e’zoziyu yoshlarning istiqbolli kelajagi yo‘lida har birimizning tanlovimiz muhim.

Saylovlar jarayonlarida ishtirok etib amin bo‘ldimki, bugun yurtdoshlarimiz qatori nuroniylar ham mamlakat taraqqiyoti, kelajagi uchun aslo befarq emas. Bundan anglashiladiki, amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, islohotlar aholi farovonligini ta’minlashda yanada yaqqol aks etmoqda.

O‘rol CHO‘TBOYEV, “Nuroniy” jamg‘armasi Sho‘rchi tumani bo‘limi raisi.

Ta’lim sifatini oshirish:

AMERIKA TAJRIBASI ARIZONA DAVLAT UNIVERSITETI TOMONIDAN AMERIKA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI ORQALI QUVVATLANADI

Amerika oliy ta’lim tizimi dunyodagi eng samarali va ilg‘or tizimlardan biri sifatida keng e’tirof etiladi. Buning asosiy omillaridan biri – ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar hamda global hamkorlikni boshqaradigan yuqori sifatli universitetlarga katta e’tibor qaratilishi. Ushbu muassasalar orasida Arizona davlat universiteti (ADU) tadqiqot, talabalarga yo‘naltirilgan ta’lim va xalqaro hamkorlikdagi mukammalligi bilan ajralib turadi.

Taraqqiyot mezonlari

Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi yetakchi muassasa sifatida Arizona davlat universiteti ilg‘or tadqiqotlar, innovatsion o‘qitish usullari va global dunyoqarash orqali sifatli ta’limga sodiqligini doimiy ravishda namoyish etadi. Uning oliy ta’limga bo‘lgan yondashuvi o‘quv sifatini oshirish uchun qimmatli saboqlar beradi hamda bu darslar endilikda O‘zbekistonga Arizona davlat universiteti tomonidan quvvatlanadigan Amerika texnologiyalar universiteti orqali olib kelinmoqda.

Xo‘sh, Arizona davlat universiteti muvaffaqiyatining asosiy omillari nimalarda namoyon bo‘ladi?

Birinchidan, tadqiqot va innovatsiyalar. ADU muvaffaqiyati uning ilmiy tadqiqotlar va amaliy qo‘llanmalarga e’tibori bilan chambarchas bog‘liq. Universitet zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanadi hamda turli sohalarda innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga ustuvor ahamiyat beradi. Tadqiqotning mukammalligiga bunday sadoqat nafaqat akademik sifatni, balki jamiyatga foyda keltiradigan amaliy yutuqlarni ham oshiradi.

Ikkinchidan, talabalarga yo‘naltirilgan ta’lim. Amerika universitetlari, jumladan, ADU talabalarga yo‘naltirilgan ta’lim muhiti bilan mashhur. Oliygohda har bir talabaning o‘ziga xos qobiliyati hamda ehtiyojlari hisobga olinadi. Ushbu individual yondashuv talabalarning o‘z maqsadlariga moslashtirilgan yuqori sifatli ta’lim olishlarini ta’minlashga yordam beradi.

Uchinchidan, xalqaro hamkorlik. ADU global ta’lim dasturlari hamda hamkorlikda faol ishtirok etadi. Xalqaro loyihalarda qatnashish universitet faoliyatida yangi istiqbollar ochish va butun dunyo bo‘ylab o‘zining ta’limga ta’sirini kengaytirish imkonini beradi.

Sir emaski, har qanday mamlakat oliy ta’lim tizimi rivoji uning rivojlangan davlatlar oliy ta’lim tizimi bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik aloqalariga bevosita bog‘liq. Shu ma’noda O‘zbekiston ana shunday hamkorlikni tizimli va samarali yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu esa o‘z natijalarini berayotgani quvonarlidir.

Birgina Amerika texnologiyalar universiteti bilan o‘rnatilgan manfaatli aloqalar mamlakatimizda ta’lim sifatini mustahkamlashda muhim qadam, desak, ayni haqiqat.

Avvalo, ADU tomonidan quvvatlanadigan Amerika texnologiyalar universitetining tashkil etilishi mamlakat ta’lim tizimini rivojlantirishda ayni muddao. Ushbu hamkorlik Amerika texnologiyalar universitetida Amerika oliy ta’lim standartlarini joriy qilish hamda shu orqali O‘zbekistondagi talabalar va o‘qituvchilarga jahon andozalari darajasidagi ta’lim imkoniyatlaridan foydalanishni ta’minlashga qaratilgan.

Mazkur o‘zaro ta’lim hamkorligining afzalliklari haqida ko‘p gapirish mumkin. Bu, birinchi navbatda, talabalar uchun zamonaviy ta’lim imkoniyatlarini yaratib beradi. Amerika texnologiyalar universiteti ADU tomonidan ishlab chiqilgan dasturlari bilan talabalarga Amerika standartlari asosida ta’lim olish, zamonaviy kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkoniyatini taqdim etadi. Shuningdek, mahalliy talabalar chet elga bormasdan yuqori sifatli o‘quv dasturlaridan foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

O‘qituvchilarning malakasini oshirish borasida ham ijobiy siljishlar kuzatiladi. Ya’ni hamkorlik O‘zbekistondagi pedagoglarning malakasini oshirishga ham qaratilgan. Ushbu sheriklik orqali o‘qituvchilarni ADUda qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta’lim metodlari bo‘yicha o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning kasbiy mahorati hamda o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zaro aloqalar xalqaro imkoniyatlarni ham kengaytiradi. ADU akademik ko‘magida Amerika texnologiyalar universitetini tashkil etish nafaqat O‘zbekiston ta’lim tizimining nufuzini oshiradi, balki mamlakatga ko‘proq xorijiy talabalarni jalb qiladi.

Qisqacha aytganda, ana shunday xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda jahonning nufuzli institutlaridan biriga ega universitetni tashkil etish orqali O‘zbekiston ta’lim tizimini mustahkamlash, uni dunyo andozalari bilan moslashtirish borasida muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Pirovardida Amerika texnologiyalar universiteti ADU ko‘magida Amerika oliy ta’limining ilg‘or tajribalarini O‘zbekistonga olib kirish uchun qimmatli imkoniyat bo‘lib xizmat qilishi bilan birga talabalar hamda o‘qituvchilar uchun porloq kelajakka yo‘l ochishi, shubhasiz.

Akram HOSHIMOV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 28-oktabr

TA’LIM VA ISHLAB CHIQARISH UYG‘UNLIGI – zamonaviy kadrlar tayyorlash garovi

O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar yo‘lini tanlagan. Oldinda turgan ushbu ezgu maqsadlarga erishish zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallagan yosh mutaxassislarga ham chambarchas bog‘liq.

Shuning uchun mamlakatimizda ta’lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi bugungi kunda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan asosiy dasturga aylandi.

Dunyoda iqtisodiyotning yangi, zamonaviy yo‘nalishlari paydo bo‘layotgan ekan, O‘zbekistonda ham zamon talablariga javob beradigan yetuk kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa bo‘lib, bu borada ta’lim va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Nuqtai nazar

Uzviylik – ustuvor vazifa



Prezidentimizning 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan. Mazkur hujjat oliy ta’lim tizimida ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni ham ko‘zlaydi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning yoqilg‘i-energetika, kimyo, mashinasozlik, avtomobilsozlik hamda boshqa yo‘nalishlarida katta-katta korxonalar, zavod va fabrikalar ishga tushirilyapti. Ammo ularni zamon talablariga mos iqtisodchilar, muhandislar, texnologlar bilan ta’minlash masalasi ham ortda qolmasligi zarur. Shu bois davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarni kasb-hunarga o‘qitishni yangicha yondashuv asosida tashkil etish, o‘quv dasturlari va o‘qitish metodikasini zamonaviy ishlab chiqarish talablari asosida qayta ko‘rib chiqish yuzasidan muhim ko‘rsatmalar berilgan.

Prezidentimiz tomonidan shu yil 30-sentabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillari ishtirokida ta’limda amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan muloqotda maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, oliy ta’lim va malaka oshirish tizimida yagona uzviy zanjirni yo‘lga qo‘yish uchun pedagogik ta’lim klasterlari tashkil qilinishi ham ta’kidlandi. Bu tajriba-sinov tariqasida dastlab Andijon va Buxoro shaharlarida barpo etilishi ko‘zda tutilmoqda.

Mazkur vazifa, albatta, o‘qituvchilar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan Andijon davlat pedagogika instituti jamoasi zimmasiga alohida mas’uliyat yuklaydi. Chunki uning ijrosi uchun Andijon va Buxoro davlat pedagogika institutlari byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan 25 milliard so‘m ajratishi belgilandi.

Maqsad – iqtidorlilarni saralash

Bugun sanoat korxonalarining tegishli oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorligini yanada kuchaytirish, iqtidorli talabalarning korxonalarda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha amaliyot o‘tashini yo‘lga qo‘yishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Nafaqat talabalar amaliyoti, balki professor-o‘qituvchilarning ham ilmiy tadqiqot ishlari tegishli korxonalarda o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Chunki malakali mutaxassis hamma joyda kerak. Endigina ishga kirgan xodimning barchasi ham o‘z sohasining ustasi bo‘lmaydi. Shu bois korxonalar kelajak egalari bo‘lgan yoshlarning amaliyot o‘tashlariga e’tiborni kuchaytirishlari lozim. Maqsad ayon: iqtidorlilarni saralab olish, kadrlar zaxirasini to‘ldirish, yoshlarga motivatsiya berish, shu sohaga qiziquvchilar safini yanada kengaytirish. Bu amaliyotchilarning keyinchalik shu korxonalarda mehnat qilishlari uchun zinapoya vazifasini o‘taydi.

Xo‘sh, talaba qachon yetuk mutaxassisga aylanadi? Qachonki, oliy ta’lim muassasasining moddiy-texnika bazasi mustahkam, zamon talabiga javob beradigan darajada bo‘lsa, professor-o‘qituvchilar darsni innovatsion texnologiyalar va yangi darsliklar vositasida o‘tsa, o‘quv amaliyotlari sifatli tashkil etilsa. Shunday ekan, yoshlarni rivojlangan xorij davlatlarida bo‘lgani kabi ko‘proq amaliyot o‘tashga yuborishimiz shart. Aslida ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining afzalligi ham shunda. Talabalar bilan bir qatorda olimlarning ishlab chiqarish obyektlarida stajirovka o‘tashi ilmiy izlanishlar mavzusi kengayishi va ular tomonidan yaratiladigan yangi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari ko‘payishiga xizmat qiladi.

Yana bir masala. Ishlab chiqarish korxonalarining mutaxassislari ham ta’lim jarayoniga ko‘proq jalb etilishi darkor. Ular oliygohlarda talabalarga o‘z sohalari bo‘yicha dars bersa, amaliy mashg‘ulotlarni olib borsa, talabalar bundan katta saboq oladi. Bu yoshlarning sohaga qiziqishini yanada kuchaytirish, o‘quv qo‘llanmalari va darsliklarni amaliy bilimlar bilan omixta o‘rganish, pirovardida ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Korxonalar va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik yanada mustahkamlanadi.

Milliy sanoatimiz ravnaqiga hissa qo‘shadigan “oltin fond”

Biz dunyoga yuz tutyapmiz. Dunyo ham bizga talpinmoqda. Demak, dunyoviy bilimlarni, tajribalarni ommalashtirish, tatbiq etish davrning asosiy talabidir. Qisqacha aytganda, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining rivoji barcha sohada taraqqiyotning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Birinchi navbatda, oliy ta’lim muassasalari faoliyatida tub burilish yuz beradi, ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti shakllanadi. Natijada ta’lim sifatiga e’tibor kuchayadi. Yangi avlod darsliklari ko‘payadi, oliygohlarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi va malakali mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari ortadi. Aynan ana shu kadrlar, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, milliy sanoatimizning ravnaqiga munosib hissa qo‘shadigan “oltin fond”imizga aylanadi.

Tan olishimiz kerak, bugun iqtisodiyot sohasi uchun kadrlar suv va havodek zarur. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 7-fevraldagi “Iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ham jahon bozorida raqobat tobora keskinlashayotgan bir paytda mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda ta’lim sifati va ilmiy salohiyatni ko‘tarish orqali kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, iqtisodiyot va moliya sohasidagi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish, ularda samarali boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yish, o‘quv jarayonlariga eng so‘nggi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, ilmiy faoliyatni jahon standartlari asosida tashkil etish, ularning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yanada oshirish, ilg‘or xorijiy tajribaga ega ilmiy-pedagogik kadrlarni keng jalb qilish mamlakat iqtisodiyoti hamda moliya tizimlari uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi hisoblanadi.

Bugun biz uchinchi Renessansning poydevorini qurishni maqsad qilgan ekanmiz, milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonaviy bilimlar va ilg‘or texnologiyalarni egallagan yoshlargina bunga qodirligini, ular o‘z oldimizga qo‘ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishda muhim rol o‘ynashini tushunmog‘imiz kerak.

Biz, pedagoglarning endigi vazifasi zamonaviy texnik ta’minotga ega ta’lim muassasalarida talablar darajasida innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida yoshlarimizga ta’lim-tarbiya berishdan iborat. Buning uchun har bir pedagog o‘z ustida ishlashi, zamondan orqada qolmasligi, o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini puxta bilishi va o‘z faoliyatida qo‘llay olishi zarur. Hozirgi kunda eski an’anaviy uslubdagi darslar yoshlarimiz ehtiyojini qondirmaydi, ular bunday darslarni tinglagisi kelmaydi. Chunki ularda fikrlash va tafakkur boshqa, biror fan bo‘yicha bilimga ega bo‘lishda yondashuvlar ham o‘zgacha. Ya’ni bugungi navqiron avlodning fikrlashi va tafakkuri bundan 15 – 20 yil avvalgi yoshlarga nisbatan ancha baland va tez. Agar pedagog yoshlar bilan hamnafas fikrlamasa, zamon yangiliklari va talablaridan orqada qolsa, ayniqsa, berayotgan bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirmasa, uning faoliyati samarasiz bo‘lib qolaveradi.

Ilmsiz rivojlanish bo‘lmaydi

Kezi kelganda yana bir masalaga e’tibor qaratmoqchimiz. Bundan bir necha yil avval oliy ta’lim tizimida texnoparklarning yaratilishi haqida tasavvur ham qilmagan edik. Rivojlangan mamlakatlarning oliy o‘quv yurtlarida ko‘rib, havas qilib, qani endi bizda ham shunday imkoniyatlar bo‘lsa, deb o‘ylardik. Bugun har qadamda qurilayotgan texnoparklar nafaqat yurtimiz taraqqiyotida, balki ta’lim tizimini yangi darajaga ko‘tarishda muhim o‘rin tutmoqda. Bunday parklarda amaliyot o‘tayotgan yoshlarimiz bilimlarini oshirish bilan birga, mehnatiga yarasha pul ham ishlab topishayotgani yanada quvonarli.

“Ilm bo‘lmasa, rivojlanish bo‘lmaydi” deganlaridek, keyingi sakkiz yilda mamlakatimizda islohotlar mana shu qat’iy tamoyil asosida kechdi. Davlatimiz rahbari ilm-fan va innovatsiyalar rivojini eng ustuvor masala sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda. Bugun yurtimizdagi biznes inkubatorlar, akselerator va kovorking markazlari, IT-parklar mana shu maqsadga qaratilgani bilan diqqatga sazovor.

Xullas, ilm-fan va innovatsiyalar, ta’lim va ishlab chiqarish uyg‘unligi yangi O‘zbekiston taraqqiyotida strategik ahamiyatga ega ustuvor sohaga aylandi. Oliy ta’lim tizimining vazifasi faqat talabalarni o‘qitishdangina iborat emas, balki haqiqiy ma’noda yosh kadrlarni tayyorlash, degan g‘oya shakllandi. Ushbu yo‘lda bugun keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqdaki, buning natijasini yoshlarning ilmiy tadqiqotlarda faol qatnashayotgani, ishlab chiqarish jarayonlarida yirik loyihalarni amalga oshirishda qatnashayotgani misolida ko‘rishimiz mumkin. Ta’lim, fan va ishlab chiqarishning o‘zaro manfaatli hamkorlik mexanizmi yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularni ish o‘rinlari bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa Prezidentimiz rahbarligida yangi O‘zbekistonni bunyod qilish va uchinchi Renessansga mustahkam zamin yaratish borasida dadil qadamlar tashlanayotganining yana bir ifodasidir.

Baxtiyor RASULOV,
Andijon davlat pedagogika instituti rektori,
tarix fanlari doktori, professor.

REKLAMA

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

2024/2025-o‘quv yili uchun quyidagi kafedralarga pedagog xodim (professor-o‘qituvchi)larni ishga qabul qilish uchun tanlov e’lon qiladi:

№	Kafedra birligi	Shtatlar
	Amaliy matematika va intellektual texnologiyalar fakulteti	
1.	Algoritmlar va dasturlash texnologiyalari kafedrasi	1,5 ta
2.	Amaliy matematika va kompyuter tahlili kafedrasi	6 ta
3.	Axborot xavfsizligi kafedrasi	3 ta
4.	Sun’iy intellekt kafedrasi	2 ta
5.	Hisoblash matematikasi va axborot tizimlari kafedrasi	3,75 ta
	Biologiya fakulteti	
1.	Biokimyo kafedrasi	2,25 ta
2.	Biofizika kafedrasi	1 ta
3.	Botanika va o‘simliklar fiziologiyasi kafedrasi	1,25 ta
4.	Genetika kafedrasi	3,25 ta
5.	Zoologiya kafedrasi	2 ta
6.	Mikrobiologiya va biotexnologiya kafedrasi	8,75 ta
7.	Odam va hayvonlar fiziologiyasi kafedrasi	1 ta
8.	Tuproqshunoslik kafedrasi	0,25 ta
9.	Ekologiya kafedrasi	5 ta
10.	Ekologik monitoring kafedrasi	3 ta
	Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti	
1.	Geodeziya va geoinformatika kafedrasi	2,75 ta
2.	Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasi	1 ta
3.	Kartografiya kafedrasi	5 ta
4.	Tabiiy geografiya kafedrasi	4,5 ta
	Geologiya va muhandislik geologiyasi fakulteti	
1.	Geodinamika va tektonika kafedrasi	1,5 ta
2.	Geokimyo va mineralogiya kafedrasi	3,5 ta
3.	Geologiya kafedrasi	8 ta
4.	Geofizikaviy tadqiqot usullari kafedrasi	1,25 ta
5.	Gidrogeologiya kafedrasi	8 ta
	Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti	
1.	Audiovizual va internet jurnalistika kafedrasi	4,5 ta
2.	Jamoatchilik bilan aloqalar va reklama kafedrasi	6 ta
3.	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasi	0,25 ta
4.	O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi	7 ta
5.	O‘zbek tilshunosligi kafedrasi	3,5 ta
6.	Rus adabiyotshunosligi kafedrasi	8 ta
7.	Rus tilshunosligi kafedrasi	6,25 ta
8.	Fakultetlararo rus tili kafedrasi	0,5 ta
	Ijtimoiy fanlar fakulteti	
1.	Ijtimoiy ish kafedrasi	4,75 ta
2.	Ijtimoiy psixologiya kafedrasi	7 ta
3.	Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi	14,5 ta
4.	Siyosatshunoslik kafedrasi	4,5 ta
5.	Sotsiologiya kafedrasi	3 ta
6.	Umumiy psixologiya kafedrasi	12,25 ta
7.	Falsafa va mantiq kafedrasi	8,75 ta
8.	Falsafa va ma’naviyat asoslari kafedrasi	7,5 ta
9.	Huquqiy fanlar kafedrasi	17,75 ta
10.	Etika va estetika kafedrasi	5 ta
	Iqtisodiyot fakulteti	
1.	Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi	8,25 ta
2.	Makroiqtisodiyot kafedrasi	8,5 ta
3.	Mintaqaviy iqtisodiyot va menejment kafedrasi	0,75 ta
4.	Moliya va kredit kafedrasi	12,5 ta
5.	Ekonometrika va iqtisodiy modellashtirish kafedrasi	7,5 ta
	Kimyo fakulteti	
1.	Analitik kimyo kafedrasi	0,5 ta
2.	Noorganik kimyo kafedrasi	2,5 ta
3.	Organik kimyo kafedrasi	0,25 ta

Tanlovda qatnashadigan nomzodlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:
1. Universitet rektori nomiga ariza;
2. Xodimlarni hisobga olish bo‘yicha shaxsiy varaqa (ma’lumotnoma);
3. Oliy ma’lumoti to‘g‘risidagi diplomlar nusxasi;
4. Ilmiy unvoni darajasi to‘g‘risidagi diplomlar nusxasi;
5. Ilmiy ishlari ro‘yxati (so‘nggi 3 yil);
6. Malaka oshirganligi to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi;
7. Xorijiy til bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikat nusxasi (xorijiy filologiya fakulteti o‘qituvchilari uchun).

Hujjatlar e’lon chop etilgan sanadan boshlab 1 oy muddatda qabul qilinadi.
Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy, O‘zMUning xodimlar bo‘limi. Tel.: 71-246-03-92.

Aksiyadorlik tijorat “Aloqabank” aksiyadorlari diqqatiga!

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida XABARNOMA

Sizni **2024-yil 19-noyabr kuni soat 10:00 da** masofadan turib elektron ovoz berish xizmati **http://evote.uz** orqali bo‘lib o‘tadigan AT “Aloqabank” aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishiga taklif etamiz.

Kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilgan:

1. AT “Aloqabank” aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash;

2. AT “Aloqabank”ning aksiyalari bo‘yicha dividendlar to‘lash;

3. “AT “Aloqabank”ning 2024 – 2026-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi”ni tasdiqlash.

AT “Aloqabank” Kuzatuv kengashi yig‘ilishining 2024-yil 25-oktabrdagi qaroriga asosan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida **xabardor qilish** uchun reestrni shakllantirish sanasi: **2024-yil 25-oktabr**. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida **ishtirok etish** huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar reestri tuziladigan sana: **2024-yil 13-noyabr.**

Yig‘ilish qatnashchilarini ro‘yxatga olish **internet tizimi orqali elektron ovoz berish xizmatidan (http://evote.uz) foydalangan holda 2024-yil 19-noyabr** soat 09:00 da boshlanib 10:00 da to‘xtatiladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishiga oid hujjatlar hamda kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tayyorlangan ma’lumotlar bilan **http://evote.uz** elektron sahifasi orqali tanishishingiz yoki **info@aloqabank.uz** elektron manzili bo‘yicha so‘rov yuborishingiz mumkin.

Ma’lumot uchun telefon: 71-232-83-67.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 22.45 Topshirildi — 00.10 1 2 3 4 5 6